

«Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi»da  
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy  
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari



70	<p><b>Nozima Xakimovna Aslanova</b></p> <p>Buxoro viloyati PYaMO‘MM v.b. dotsenti,p.f.b.f.d. (PhD).</p> <p><b>IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI</b></p>	339
71	<p><b>Saodat Qaxxorova</b></p> <p>Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi</p> <p><b>XUSRAV DEHLAVIY FALSAFIY G‘OYALARINING JAMIYAT RIVOJIDAGI O‘RNI</b></p>	342
72	<p><b>Maxbuba Baxshilloyevna Sharipova</b></p> <p>Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi, PhD</p> <p><b>“ALPOMISH” DOSTONI VA BOSHQA JANRLAR MUNOSABATI</b></p>	346
73	<p><b>Sherxon QORAEV</b></p> <p>TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetining Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.</p> <p><b>MUTAFAKKIR SHOIR VA SHAYX UBAYDULLAXONNING MUSHOIRA KECHALARI</b></p>	352
74	<p><b>Oripova Mavluda Qodirovna</b></p> <p>BVPYMO‘MM “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi</p> <p><b>BOBURNOMA» - NASRIY MEMUAR VA TARIXIY-ILMIY ASAR</b></p>	360
75	<p><b>Yadgarova Gulbaxor Tillayevna</b></p> <p>p.f.n.,(P,hD)., Buxoro davlat pedagogika instituti, “Pedagogika” kafedrası dotsenti</p> <p><b>ULUG’ MUTAFAKKIRLAR YUKSAK MA’NAVIYATI – YANGI AVLOD PSIXIK TARAQQIYOTI YO’LIDA</b></p>	365
76	<p><b>Yuldosh Altiboyev</b></p> <p>Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti</p>	371

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

Козмоян А.К. Рубои в классической поэзии на фарси (X-XIIвв.). – Ереван, 1981.

Шомухамедов Ш., Мусаев Б. Амир Хусрав Дехлавий. – Т.: Фан, 1971.

Бақоев М. Наёт ва эжодиёти Хусрави Дехлавий. – Душанбе: Дониш, 1975.

Мусаев Б. Амир Хусрав Дехлавий ва Алишер Навоий, – Шарқ юлдузи журнали, –Т., 1968.

Алиев Г.Ю. Персоязичная литература Индии. –М., 1968.

Муниров Қ. Амир Хусрав Дехлавий асарларининг кўлёмалари. –Т.,1975.

Бақоев М. Наёт ва эжодиёти Хусрави Дехлавий. –Душанбе: Дониш, 1975.

Имомназаров.М. Из опыта составления словаря языка Амира Хосрова. -В сб.: Амир Хосров Дехлеви, – Т., 1978.

Йўлдошева С. Характеристика сравнения в поэме «Нашт беешт» Амир Хосрова Дехлеви. – В сб.: «Амир Хосров Дехлеви». –Т., 1975.

### **“ALPOMISH” DOSTONI VA BOSHQA JANRLAR MUNOSABATI**

**Maxbuba Baxshilloevna Sharipova,**

**Buxoro davlat universiteti,**

**Maktabgacha ta’lim kafedrasi o’qituvchisi, PhD**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon eposshunosligida dostonning folklor janrlari tizimida tutgan o‘rni, tarqalish areali, taraqqiyot qonuniyatlari, epik sujeti, arxaik va an’anaviy motivlari, obrazlar tarkibi, badiiy qurilishi, ifoda uslubi, tili masalalari tadqiqi har doim ustuvor vazifalardan biri ekanligi, eposning poetik xususiyatlarini o‘rganish, turlarini aniqlash, ularning boshqa folklor janrlari (masalan, mif, afsona, rivoyat, ertak, qo‘shiqlar) bilan genetik aloqadorligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

**Аннотация:** В данной статье роль эпоса в системе фольклорных жанров, ареал распространения, законы развития, эпический сюжет, архаические и

традиционные мотивы, композиция образов, художественное построение, стил выражения, язык всегда являются одними из Обоснованы приоритетные задачи данной стати: изучение поэтических особенностей эпоса, выявление его типов, их генетическая связь с другими фольклорными жанрами (например, мифами, легендами, повестями, сказками, песнями).

**Ключевые слова:** народный эпос, фольклор, фольклористика, любовь, национальная культура, обряд, традиция, соотношение обряда и эпоса.

**Abstract:** In this article, the role of the epic in the system of folklore genres, the distribution area, development laws, epic subject, archaic and traditional motifs, composition of images, artistic construction, style of expression, and language are always one of the priority tasks in this article. the study of the poetic features of the epos, the identification of its types, and their genetic connection with other folklore genres (for example, myths, legends, narratives, fairy tales, songs) are substantiated.

**Key words:** folk epics, folklore, folkloristics, love, national culture, ritual, tradition, relationship between ritual and epic.

**1. Mif va “Alpomish” dostoni munosabati.** Buni asoslashda qahramonning tug‘ilmasdanoq homiy eranlar nazarida turganligi – nazarda ekanligini dalil keltirish mumkin. Sh.Turdimov aytib o‘tganidek, “eposning qadimiy shaklida alp to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilohlar farzandi... deb talqin etiladi”. [1] O.Madayev aytib o‘tganidek: “Miflarda ota-bobolarimizning orzulari ham aks etgan. Ular o‘zlari yaxshi ko‘rgan, hurmat qilgan odamlarning kasal bo‘lmasliklarini, ularga qilich, o‘q o‘tmasligini, o‘tda yonmasliklarini istaganlar. “Alpomish” dostoni qahramoni Hakimbek aynan ana shunday xislatlar egasi sifatida tasvirlangan.

M.Jo‘rayev “Alpomish” dostonidagi mifologik obrazlar xususida o‘z fikrlarini bayon etgan. [2]

**2. Afsona va “Alpomish” dostoni munosabati.** Dostonda Boybo‘ri va Boysarining farzand so‘rab Shohimardon pir ravzasiga (bu o‘rinda toponimik afsona sujetiga murojaat kuzatiladi) borishi, u yerdan “Boybo‘ri, senga xudoyim bir o‘g‘il, bir qiz berdi, yolg‘iz emas egiz berdi; Boysari, senga xudoyim bir qiz

berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yga qalandar bo'lib borib, bolalarning otini o'zim qo'yib kelaman" deb, roppa-rosa qirq kun o'tganda ovoz kelishi g'aroyib va afsonaviydir. Dostonda Alpomish hayoti bo'yicha yana bir mifologik afsona (xayoliy uydirma, badiiy to'qima) asar voqealarini bir-biriga ulash uchun keltirilgan. Unda aytilishicha, Alpomish bolalik paytida qulquntuy qushning bolasini uyasidan olmoqchi bo'ladi, ammo ololmay jahli chiqqach, qush uyasining og'zini bekitib qo'yadi. Ona qush uni "Mening bolalarimni zindonband qilding, sen ham yetti yil zindonband bo'l" deb qarg'abdi. Ushbu afsona dostonda uch voqelikni tasdiqlashga xizmat qilgan:

Birinchisi, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatu muvozanat buzilsa, undan har ikkala tomon – tabiat ham, odam ham baravar ozor chekishi ochilgan.

Ikkinchisi, inson taqdiri tabiat taqdiri bilan bog'liqligi asoslangan.

Uchinchisi, "Qilmish – qidirmish" ekanligi, inson noto'g'ri va nojo'ya xatti harakatlariga javoban yo taqdirlanishi, yo jazolanishi dalillangan.

"Alpomish" dostonida qahramonning alplarga xos sehr-jodu qudratiga egaligi, alplar ruhidan qurol-yarog'ni hayratli tarzda qabul qilishi, doimiy chiltonlar va pirlarning homiyligida yurishi, Barchin bilan ruhi g'aroyib holatda uchrashishi, tanasining o'tda yonmasligiyu suvga cho'kmasligi, o'ng egnida Shohimardon purning besh panjasining dog'i borligi (belgili, ruhlar tomonidan tanlanganlik nishonasiga egaligi) talqinlarida afsonaviylik xususiyatlari ko'zga tashlanadi.

"Alpomish" dostoni zuvalasi N.Ya.Bichurin xitoy yozma manbalariga tayanib, ilm olamiga olib kirgan "Ashina" ("Bo'ri") afsonasi sujeti bilan ham bog'lanadi. Bo'ri-ajdod yoki homiy haqidagi eng qadimiy mifologik afsonalardan birida ashina urug'ining kelib chiqish tarixi Ashina nomiga taqaladi. Afsonada Ashina yangidan tiklangan urug'ning bosh sardori sifatida tan olingan. [3]

**3. Rivoyat va "Alpomish" dostoni munosabati.** Dostonda urug'lar o'rtasida kechgan jang va hujumlar, ularning ko'pincha qiz oldi-berdisi tufayli yuz bergani, bunda oila sha'ni uchun kurashish motivlari hayotiy voqelikka asoslanganligi bilan e'tiborni tortadi. Shu ma'noda dostonda Alpomishning o'z amakisi (qaynotasi)

Boysari qavmini qalmoqlar shohi Toychixon zulmidan qutqarishga borishi tarixiy haqiqat – turkiy qavmlarning bir-birini qo‘llab-quvvatlash maqsadida kurashganini tasdiqlovchi dalildir.

Yoki Boysari kashal yurtida yetti -yildan beri yashayotgan bo‘lsa-da, ularga qoni qo‘shilmaganini his qilib, elga aralashish maqsadini Yortiboy oqsoqolning Barchin qizni alplarga erga berish maslahati orqali amalga oshirishni ham o‘ylaydi. Ammo or-nomus, millat, vatan, kelajak nasl taqdiri degan tushunchalardan uzoq kimsa bo‘lgan Yortiboyning maslahatiga bir bor quloq soliib adashgan Boysari bu gal boshqacha yo‘l tutadi, yurtiga xabar yuoradi.

Biroq, Sh.Turdimov aytganidek: “Doston tarix emas, ammo tarix dostondan sirtda bo‘lmas... Epos xalqning ma’naviy qiyofasi, badiiy talqindagi tarixi”. [4]

**4. Ertak va “Alpomish” dostoni.** O.Madayev fikricha, “Alpomish” dastavval mif, afsona, rivoyat, ertak tarzida dunyodagi turkiy elatlar orasida yaratilgan, keyinchalik esa o‘zbeklar istiqomat qiladigan hududlarda doston shaklida ijro etila boshlagan. Jumladan, o‘g‘uz versiyasidagi “Alpomish” asari ertak janrida yaratilgan. Bu masalaga birinchilardan bo‘lib V.M.Jirmunskiy e’tibor qaratgan. [6] Darhaqiqat, dostonda shunday motivlar borki, ular beixtiyor u yoki bu ertak sujetini yodga soladi. Ulardan biri quyidagi o‘rinda ko‘rinadi. Alpomish zindondan chiqib, boshidan kechirgan jabru jafolaridan ko‘ngli o‘rtanib turganida, qarshisidan karvon o‘ta boshlaydi. Shunda u karvondan:

Kim bo‘ladi norchalarning egasi?

Javob bergin mol egasin bilayin, [8] – deb so‘raydi.

Karvon:

Nori-norcha Ultontozning tuyasi.

...Ulton shohim Qo‘ng‘irot elning sultoni.

... Adadsiz elatni so‘rab turibdi.

Qancha odam xizmatida yuribdi.

Har kimdan begimiz juda g‘olibdi(r).

Ovozasi yurt – olamga boribdi(r).

Eshitgan yetolmay, intiq bo‘libdi,

Hamma eli xohlab katta qilibdi, [8] – deb javob qilibdi.

Ko‘rinadiki, Alpomish bilan karvondagilarning bu savol-javob dialogi mashhur o‘zbek xalq ertagi “Ur to‘qmoq”dagi chol va yilqiboqarlarning xuddi shunday savol-javobini eslatadi.

Alpomish karvonlarga quyidagicha tagdor, kinoyali javob beradi:

... Ilgarida paydo bo‘ldi Dovonbiy

Dovonbiydan paydo bo‘lgan Alpinbiy,

Alpinbiyning o‘g‘li edi Boybo‘riman, Boysari,

Boybo‘rining o‘g‘li Hakim qaysari,

Bek Alpomish edi Qo‘ng‘irot beklari.

Ul sababdin mol so‘radim karvonlar. [8]

Alpomish bu javobi bilan inson, davlat haq-huquqi molu boylik bilan emas, obro‘yi va qadri, sha‘nu shavkati, odamiyligi bilan belgilanishiga ishora qilayotir. Shuning uchun u o‘z shajarasini eslab, bu shajarada Ultontozning o‘rni yo‘qligini, uning hech kimligini aytmoqchi.

Xuddi “Ur to‘qmoq” ertagida aytilganidek, mol-mulk “Laylak”da ham bo‘lishi mumkin. Lekin Laylak ham har qancha boy bo‘lsa-da, kuni kelib odamga ishi tushdi. Odam undan ustunligini namoyon eta oldi.

**5. Qo‘shiq va “Alpomish” dostoni munosabati.** Boshqa dostonlar kabi “Alpomish” dostoni ham she‘riy va nasriy parchalar uyg‘unligida yaratilgan. Xususan, unda Alpomishning urug‘, xalq manfaatlarini, urf-odatlarini himoya qiluvchi xalq qahramoni sifatidagi qiyofasi, umuminsoniy ma‘naviy fazilatlarini ta‘rif-tavsif qilingan, madh etilgan she‘riy misralar xalq qo‘shiqlari uslubida shakllantirilgani jihatidan diqqatni tortadi.

Jamoling o‘xshaydi osmonda oyga,

Qoshingni o‘xshatdim egilgan yoyga,

Jasading o‘xshaydi bo‘z qarchig‘ayga,

Yonboshlab yotishing ming qo‘yli boyga.

Boyvachcha sifatlim, qaydan bo‘lasan? [8]

Dostonlarda kuyovning to‘y qo‘shiqlarini ijro etishi esa epik asarlarga xos yadro motivlardan biridir. U kuyovlarni sinashdan iborat an’anaviy motiv bilan bog‘liq. Qahramon va ayol o‘rtasida qo‘shiqchilik musobaqasi juda ko‘p dostonu ertaklarning fabulasida markaziy o‘rin tutadi. Qahramon va ayol o‘rtasidagi aytishuv ruhidagi dialogdan iborat musobaqa ko‘pincha qahramonlik va romanik dostonlardagi unashtirish mavzusi bilan bog‘liqlikda beriladi. Ular o‘ziga xos lirik tuyg‘ular fonida keltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ma’naviy xazinasidan o‘rin olgan aksariyat dostonlarda ma’lum bir janr bilan bog‘liq. Bu esa doston janr va marosim munosabatini, ularning bog‘liq jihatlarini o‘rganishga undaydi. “Alpomish” dostoni badiiy jihatdan betakror shoh asar ekanligini, ma’naviyatimiz dudonasi ekanligini tasdiqlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O‘zbekiston, 2012. – B.40.
2. Madaev O. “Alpomish” bilan suhbat. – T.: Ma’naviyat, 1999. – B.14.
3. Jo‘raev M. “Alpomish” dostonida mifologik obrazlar // “Alpomish” – o‘zbek xalq qahramonlik eposi. – Toshkent: Fan, 1999. – B.147–157.
4. Bichurin N. Ya. Sobraniya svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. T.1. – M., 1950. – S.220.
5. Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O‘zbekiston, 2012. – B.71-72.
6. Madaev O. “Alpomish” bilan suhbat. – T.: Ma’naviyat, 1999. – B.16.
7. Jirmunskiy V.M. Skazanie ob Alpatmysh e bogatyrskaya skazka. – M., 1960.
8. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi H.Zarifov. – T.: Sharq, 1998. – B.68. Alpomish. Doston. O‘zbek xalq qahramonlik eposi / Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar H.Zarifov va T.Mirzaev. – T.: Sharq, 1998. – 400 b.
9. Putilov B. Epos i obryad // Folklor i etnografiya. – L.: Nauka, 1974. – S.76.
10. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – T.: Fan, 2011. – B.93-94
11. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – T.: Fan, 2006. – B.5.



12. Sarimsoqov B. O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. – T.: Fan, 1988. – B. 144-145.
13. “O‘zbek marosim folklorini o‘rganishning yangicha tamoyillari” mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Navoiy, 2007. – 220 b.
14. O‘raeva D. O‘zbek motam marosimi folklori. – T.: Fan, 2004. – 120 b.
15. Uraeva, D. S., Sharipova, M. B., Zaripova, R. I., & Nizomova, S. S. (2020). The expression of the national traditions and beliefs in uzbek phraseological units. *Theoretical & Applied Science*, (6), 469-472.

## **MUTAFAKKIR SHOIR VA SHAYX UBAYDULLAXONNING MUSHOIRA KECHALARI**

**Sherxon QORAEV,**  
**TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetining**  
**Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti dotsenti,**  
**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.**

**Annotatsiya** Ushbu ilmiy maqola shayboniylar davlatining buyuk hukmdorlaridan biri shoir Ubaydullaxon ijodi va mushoira kechalari tarixiga bag‘ishlanadi.

Shohlar shoirining she‘rlari o‘z davrida badiiy barkamol nazm durdonalari sifatidayuksak baholangan.

Eng qizig‘i, u uch tilda – o‘zbek, tojik va arab tillarida she‘r bitgan.

Ubaydullaxon o‘z asarlari bilan mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan.

Kalit so‘zlar: Xushtab’ shoh, “At-Tajvid”, suxanpardoz, Devon, she‘r ilmi.

**Аннотация** Данная научная статья посвящена творчеству поэта Убайдуллы-хана, одного из великих правителей государства Шайбани, и истории ночей мушойры.

Стихи поэта королей высоко ценились в свое время как шедевры художественно совершенной поэзии.